

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA DUNYO KONSEPTI HAQIDA UMUMIY MULOHAZALAR

Qodirova Barno Ibragimovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘zbek tili va
adabiyoti kafedrasi dotsenti*

kodirova.b86@gmail.com

ORCID:0000-0001-6281-0111

Temirova Gulshoda Nabijon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada olamning lisoniy manzarasi tushunchasi va uning o‘zbek xalqi tafakkurida ifodalanishi o‘rganilgan. Bunda asosan xalq hayotining asosini tashkil etuvchi, ularning hayotiy kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan o‘zbek xalq maqol, matal va iboralari tanlab olingan hamda olamning o‘zbek lisoniy manzarasi *dunyo* so‘zining konseptual tahlili orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, mazkur konseptning maqol, matal va iboralarda ifodalanmagan semalari ham tahlil qilingan. *Dunyo* so‘zining etimologik xususiyatlariga ko‘ra, *dunyo* arabcha so‘z bo‘lib, dunya shakliga ega. Bu so‘z asli “yaqin bo‘ldi”, “yaqin joyda joylashdi” ma’nosini anglatuvchi dana fe‘lidan hosil qilingan masdar bo‘lib, bosh ma’nosida “borliq”, “ko‘z o‘ngidagi olam” ma’nosini anglatadi.

Kalit so‘zlar: olamning lisoniy manzarasi, konsept, dunyo, konseptual tahlil, maqol, matal, ibora.

ОБЩИЕ ЗАМЕЧАНИЯ О КОНЦЕПТЕ МИР В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ВОЗМОЖНОСТИ МИРА

Аннотация: данной статье рассматривается понятие языкового ландшафта мира и его выражение в мышлении узбекского народа. Выделены узбекские народные пословицы, пословицы и поговорки, составляющие основу жизни людей и сформировавшиеся в результате их повседневных наблюдений, а также показан узбекский языковой ландшафт мира посредством концептуального анализа слова мир. Также анализируются символы этого понятия, не выраженные в пословицах, поговорках и выражениях. Согласно этимологической характеристике слова дунья, дунья — слово арабского происхождения и имеет форму дунья. Это слово представляет собой инфинитив, образованный от глагола дана, который первоначально означает «стал

рядом», «поселился в близлежащем месте», а в первоначальном значении означает «бытие», «мир перед глазами».

Ключевые слова: языковой ландшафт мира, концепт, мир, концептуальный анализ, пословица, поговорка, словосочетание.

GENERAL REMARKS ON THE CONCEPT OF THE WORLD IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD

Annotation: This article studies the concept of the linguistic landscape of the world and its expression in the thinking of the Uzbek people. In this article, Uzbek folk proverbs, sayings and expressions that form the basis of people's life and arise as a result of their daily observations are selected, and the Uzbek linguistic landscape of the world is shown through a conceptual analysis of the word world. Also, the semantics of this concept that are not expressed in proverbs, sayings and expressions are analyzed. According to the etymological characteristics of the word world, the world is an Arabic word and has the form dunya. This word is an infinitive derived from the verb dana, which originally means “been close”, “settled in a nearby place”, and in its main meaning it means “existence”, “the world before our eyes”.

Keywords: linguistic picture of the world, concept, world, conceptual analysis, proverb, idiom.

KIRISH

Dunyoning globallashuvi jarayonlarining har qachongidan ham tezlashib borayotganligi turli fan sohalarining uzviy bog‘liq holda rivojlanib taraqqiy etishiga ilmiy asos bo‘lmoqda. Hozirgi tilshunoslikda mavjud lingvistik tadqiqot muammolarining mazmuni va yo‘nalishi zamonaviy bilimlar bilan hamohang tarzda o‘tib bormoqda. Mana shunday keng falsafiy lingvistik tadqiqot masalalaridan biri olam va uning manzarasi bilan bog‘liq jihatlar hisoblanadi. Tilshunoslikda olamning lingvistik tahlili va tadqiqi tarixiy ildizlarga ega hisoblanadi. Dastlab tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi tushunchasi tahliliga doir qarash va mulohazalar Vilgelm Gumboldtning g‘oyalarida fanga olib kirilgan edi. Shuningdek, Amerika etnolingvistikasining g‘oyalariga, xususan, Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariya, ya’ni tilning tuzilishi so‘zlovchining dunyoqarashiga va uning aqliy tafakkuriga ta’sir qiladi degan fikriga asoslanadi.

“Olamning lingvistik tasviri lingvistik materialni tahlil qilish orqali yaratiladi. U subyektivlikdan xoli emas, u dunyoning ko‘zgudagi aksi emas, balki hayotning ma’lum bir lahzasida qandaydir jamoa tomonidan dunyoni aks ettiradi. Etnik lingvistik ongning o‘ziga xosligi milliy va madaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan olamning ma’lum bir lingvistik manzarasini belgilaydi” [1, 36].

Til insonni o‘rab turgan olamni, xalqning turmush sharoitini, ularning tafakkuri va voqelikni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Til va madaniyatning murakkab o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘zaro ta’siri turli tillarda so‘zlashuvchilar tomonidan voqelikni idrok

etishning universal va ayni paytda o‘ziga xos xususiyatini oldindan belgilab beradi. Til insonning atrofdagi olam haqidagi bilimlarini qayd etish va ifodalashning asosiy shakli ekanligiga va har bir leksik birlik voqelikning belgilangan bo‘lagi haqida ma‘lum miqdordagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishiga asoslanib, real voqelikni bilimimiz manbai sifatida ajratamiz. Uning muayyan tilda aks etishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek xalqi dunyo qarashining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun olamning o‘zbek lingvistik tasvirida *dunyo* so‘zining konseptual tahlil qilish orqali ifodalash mumkin. Biz mazkur so‘zni tahlil qilish jarayonida xalq hayotining asosini tashkil etuvchi, ularning hayotiy kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan xalq maqollari va matallari hamda iboralarini tanlab oldik. Chunki xalqning turmush-tarzi, ruhiyati maqol va matallarida, iboralarida namoyon bo‘lib, u nafaqat tilni chuqur bilishga, balki xalqning tafakkur-tarzini, fe‘l-atvorini anglashga ham xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Konseptual tahlilning obyekti konsept sanalib, tahlil markazida turgan tushuncha konseptning semantik ma‘nosini bilish yo‘li hisoblanadi. Konsept tahlili asosida ma‘lum bir konsepsiyani ko‘rsatadigan nom bilan bog‘liq barcha bilim va g‘oyalar inson lisoniy manzarasida tiklanadi [2, 433]. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek xalqi tafakkurida “*dunyo*” quyidagi ma‘nolarda anglashiladi:

Dunyo so‘zining etimologik xususiyatlariga ko‘ra, *dunyo* arabcha so‘z bo‘lib, dunya shakliga ega. Bu so‘z asli “yaqin bo‘ldi”, “yaqin joyda joylashdi” ma‘nosini anglatuvchi dana fe‘lidan hosil qilingan masdar bo‘lib, bosh ma‘nosida “borliq”, “ko‘z o‘ngidagi olam” ma‘nosini anglatadi [3, 112]. Shuningdek, *dunyo* barcha materiya shakllarining bir butun majmui, yer kurrasi va undagi barcha mavjudot sifatida tushunish mumkin: Bog‘ ko‘rki – bodom, Dunyo ko‘rki – odam; Til kichik bo‘lsa ham dunyoni buzadi; Bilimlga dunyo yorug, Bilimsizga — qorong‘u; Dunyo yorug‘ bo‘lsin desang, Uyingga chiroq yoq; Dunyoni suv bossa, O‘rdakka ne g‘am; Dunyoni yel buzar – Odamni – so‘z; El senga etsa nadomat, Dunyoda turolmassan salomat.

O‘zbek xalqi ongida tahlil qilinayotgan so‘z moddiy boyliklar majmui sifatida ham anglashiladi: Dunyo, moli bo‘lmasa, tomni teshgan o‘g‘ri shul; Dunyo yig‘ib netarsan, bir kun tashlab ketarsan; Dunyo moli dunyoda qolar; Dunyo – bevafo, mol-dunyo – bebaqo; Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi; Dunyo moli – qo‘lning kiri; Mol-dunyo topilar, odam topilmas; Otangning mol-dunyosi bilan qolguncha, Onangning pilta-savati bilan qol; Yomon til boshga balo keltirar, Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

Dunyo so‘zining yana bir ma‘nosi o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ongida biror narsaning ko‘pligi, katta miqdori yoki ulkan hajmi bilan bog‘langan: Muhabbat – bir so‘z, ma‘nosi – dunyo; Qorni ochga non bo‘lsa bas, Ko‘zi ochga dunyo yetmas; Shabnamga quduq to‘lmas, Dunyoga baxil to‘ymas, Kengashganga – keng dunyo, Talashganga – tor dunyo; Oyoqda edging tor bo‘lsa, Dunyo kengligidan ne foyda; Torga – tor dunyo, Kengga – keng dunyo; Ichi torga –

dunyo tor; Uying tor bo‘lsa, Dunyoning kengligi bilinmas; Ikki yomon qo‘shilsa, Keng dunyoga siy(g‘)ishmas; Borga – bor dunyo, Yo‘qqa – tor dunyo.

O‘zbek tilida *dunyo* diniy tasavvurlarda yerdagi va oxiratdagi hayot tarzida (bu Dunyo, u Dunyo) [5, 381] tushuniladi: Bu dunyo o‘tar-ketar, Yuzi qoralik qolar; Devonaga ikki dunyo barobar; O‘tgusiz daryo bo‘lmas, o‘limsiz dunyo bo‘lmas; Oting yaxshi bo‘lsa, Bu dunyoning farog‘i; Umidli – dunyo, Umidsiz – shayton; Xotining yaxshi bo‘lsa, Bu dunyoning charog‘i.

Dunyo so‘zi maqollarda *olam* so‘zi bilan sinonim tarzda qo‘llanilgan bo‘lib, jamiyat, ijtimoiy jamoa, insonlar jamoasi ma’nosida ham tushuniladi: O‘zing yaxshi – olam yaxshi; O‘zingda yo‘q – olamda yo‘q; Olim bo‘lsang, olam seniki; Olim adashsa, olam qoqilar; Olim aytgani – olam aytgani; O‘zingga qarama, olamga qara; Odamga e’tibor – olamga e’tibor; Ona – olam faxridir.

Maqollarda *dunyo* deganda nimadir yetishmaydigan, nimadir kam bo‘lgan hayot, turmush ma’nosi hamda bu dunyoning charxpalakdek aylanib turishi, har bir insonning qilgan yaxshilik va yomonliklari o‘ziga qaytib turishi anglashiladi: Dunyoning ishi – miri kam ikki; Qaytar dunyo.

NATIJA VA TAHLIL

O‘zbek til madaniyatida dunyoning ma’lum antropomorfizatsiya (insoniy xususiyatlarni, his-tuyg‘ularni yoki niyatlarni inson bo‘lmagan mavjudotlarga, narsalarga yoki hayvonlarga bog‘lash harakati)sini maqollar, shuningdek, iboralarda ham kuzatamiz: Dunyo – bevafo, mol-dunyo – bebaqo; dunyo yuzini ko‘rmoq, bevafo dunyo.

Maqollar qadimiy kelib chiqishiga qaramay, eskirgan ma’naviy meros emas, balki hayotimizga, nutqimizga kirib kelgan va ishlatilayotgan tirik merosdir. U bolalik davrida farzandning ota-onalari va boshqa odamlar bilan munosabatlarida, tabiat bilan muloqotda, dinda, kundalik hayotda, insonning jamiyatga qo‘shilishi va urf-odatlar, g‘oyalar, xatti-harakatlar hamda qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllangan. Buni yuqoridagi tahlillar ham ko‘rsatadi.

O‘z so‘zlovchilarining etnik chegaralaridagi til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning xotirasi va tarixi, uning madaniyati, etnik guruh uchun an’anaviy hamda odatiy turmushdagi amaliy faoliyat tajribasidir [4, 167]. Buni o‘zbek xalq maqollari bilan birga iboralarida *dunyo* leksemasini tahlil qilish jarayonida ham kuzatishimiz mumkin.

Dunyo komponentli bir qator frazeologik birliklarda borliq semasi amalga oshadi, dunyo bilan shaxsning tug‘ilishi va o‘limi bog‘lanadi: dunyoga kelmoq, dunyo yuzini ko‘rmoq – tug‘ilmoq; dunyodan o‘tmoq, dunyo bilan vidolashmoq, dunyodan ketmoq, dunyodan ko‘z yummoq – o‘lmoq.

Dunyo ham borliq qonuniyatlarini bilish, mavjud hodisalarning xilma-xilligi bilan bog‘liq: dunyoga qarash – kishining tabiat va jamiyatni anglash-bilishi, obyektiv voqelikni tushunish; dunyoni ko‘rish – hayot tajribasini to‘plash; dunyoni ko‘rsatish – hayot xilma-xilligini anglash.

O‘zbek tilida hayotda quvonchlaridan ajralish yoki unga sovlash semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan *dunyo* komponentli bir qator frazeologik birliklar ham mavjud: daru dunyo(si)ni qorong‘i qilib yubormoq, dunyo ko‘z(i)ga tor, dunyodan sovlamoq, bevafo dunyo, dunyo bilan vidolashmoq, dunyo tarkin urmoq, dunyodan kechmoq, dunyodan ko‘z(i) ochiq ketmoq, dunyodan umidini uzmoq, dunyoni boshiga ko‘tarmoq, dunyoni ostin-ustun qilmoq.

O‘zbek xalqining sodda olam tasviridagi *dunyo* doimiy ravishda mavjud bo‘lgan hamma narsaning mavhum yaxlitligi bilan emas, balki insonning kundalik, hayotiy mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘no anglashiladi: yorug‘ dunyoga chiqmoq, yorug‘ dunyoga chiqarmoq – erkin, ozod hayotga yetishmoq; dunyoning achchiq-chuchugini totgan – hayotida turli-tuman hodisalarga duch kelib, ijobiy-salbiy narsalarni ko‘rib tajriba orttirgan; dunyoni tanigandan beri – esi kirgandan beri, tushunadigan bo‘lgandan buyon; dunyoni suv bossa, to‘pig‘(i)ga chiqmaslik – o‘ta ketgan beg‘am, haddan tashqari beparvo; dunyoni ostin-ustun qilmoq – hayot tarzini keskin o‘zgartirib yubormoq; dunyoni boshiga ko‘tarmoq – baqirib janjallashmoq; dunyodan chiroqchisiz bormoq (o‘tmoq) – farzandsiz o‘tmoq; dunyodan toq o‘tmoq – umrini turmush qurmay o‘tkazmoq; dunyodan ko‘z(i) ochiq ketmoq – qanoat hosil qilmay, rozi bo‘lmay o‘lmoq; dunyodan kechmoq mol-mulk kerak emas, demoq; dunyodan etak silkimoq – hayotning lazzatlaridan voz kechmoq; besh kunlik dunyo – tez o‘tib ketadigan qisqa umr; daru dunyo(si) qoron g‘i bo‘ldi – xafaqon, o‘ta darajada g‘amgin bo‘lmoq.

Juda ko‘p, behisob, beadam; juda katta ma‘noni bildiruvchi *bir dunyo* iborasi hamda sira ham, also ma‘nosini ifodalovchi *ikki dunyoda* iborasi o‘zbek xalqi hayotida kundalik nutqida faol qo‘llanuvchi ibora sifatida ishlatiladi.

Dunyo so‘zining, shuningdek, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” [5, 381] va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [6,] da o‘zbek xalq maqollari va iboralarida ifodalanmagan quyidagi ma‘nolari ham mavjud:

Ma‘lum bir ijtimoiy tuzumga, o‘ziga xos madaniy, ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lgan kishilik jamiyati (masalan, qadimgi Dunyo).

Borliqning, mavjudotning ayrim bo‘laklari yig‘indisi, to‘plami: yulduzlar dunyosi.

Jonli tabiatning ayrim qismlari, ular yashaydigan muhit: hayvonot dunyosi, o‘simliklar dunyosi.

Ijtimoiy hayot yoki turmushda yuz bergan (mavjud bo‘lgan) holatga nisbatan, unga qarama-qarshi bo‘lgan boshqa bir holat: Shu yo‘sin qizlar o‘zlarining bir o‘rtoqlarini xotinlik dunyosiga uzatib, majlisdan tarqalishdilar. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”.

Kishining ma‘naviy, ruhiy olami, hayoti: sehlr dunyosi, ruhiy dunyo, xayollar dunyosi, ma‘naviy dunyo, tafakkur dunyosi.

Ma‘lum bir ilm-fan, kasb-hunar, ijtimoiy hodisa sohasi: adabiyot dunyosi, odamiylik dunyosi, ta‘lim-tarbiya dunyosi.

XULOSA

Shunday qilib, olamning o‘zbek lisoniy tasviridagi dunyo insonning kundalik hayot sohasi bilan quvonch va qayg‘ular, kundalik ish va kundalik tashvishlar bilan chambarchas

bog‘liqdir. O‘zbek lingvistik ongida dunyo, birinchi navbatda, ijtimoiy (odamlarning birgalikdagi mavjudligi sifatida) va kundalik munosabatlarda belgilanadigan insonning hayotiy dunyosi - insonda insoniylik tamoyilini rivojlantirish sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Insoniy o‘lchovdagi bunday dunyo bilim manbai bo‘lgan holda muhim gnoseologik mazmunga ham ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алтамирова З.А. Концепт прекрасного «хазалла» в чеченской языковой картине мира. Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 3. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=13036>
2. Sayfullayeva R.R., G‘aybullayeva N.I. Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. Volume 30 Issue 2, 2024-yil.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003.
4. Замалетдинов Р. Национально-языковая картина татарского мира. Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Казан, 2004.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Гидрофилия – Зебралар. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов ва б. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – 704 б.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 5 JILDLI. Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyot, 2021.
7. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
8. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005. – 257 b.